XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 2-fevral VII-27-14-10-0-K/26 Toshkent viloyati

Toshkent viloyatining ayrim hududlarida transport vositalarining yuqori tezligini 80 km/soatgacha tushirish masalalarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 98-sonli farmonining 3-bandiga asosan Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga “Yo‘llarning ayrim qismlarida harakatlanish tezligini oshirishga yoki kamaytirishga (tegishli yo‘l belgilari o‘rnatib) ruxsat berish” bo‘yicha takliflarga rozilik berish vakolati berilgan.

Toshkent viloyati hududida joylashgan davlat ahamiyatiga ega D 012 “Byektemir sh.-Chirchiq sh.-G‘azalkent sh.-Chorbog‘ qo‘rg‘oni” avtomobil yo‘lining 19-74 kilometrlari oralig‘ida belgilangan tezlikka amal qilmaslik oqibatida 2025-yil 12 oyi davomida jami 63 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilgan. Natijada 15 nafar fuqaro vafot etgan va 50 nafar fuqarolar tan jarohati olgan.

Yo‘l-transport hodisalarini oldini olish, fuqarolar va harakat xavfsizligini ta’minlash, maqsadida aholi yashash hududidan tashqari qismida transport vositalarining yuqori harakatlanish tezligini kamaytirish 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” (80 km/soat) yo‘l belgilarini o‘rnatish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaning 2025-yil 4 dekabrdagi yig‘ilishida Toshkent viloyat IIB “Yo‘l harakati xavfsizligi” boshqarmasining 2025-yil 26 noyabrdagi 25/12-7167-sonli xati hamda Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hududiy maxsus komissiyaning 2025-yil 25 noyabrdagi yig‘ilish bayoni bilan taqdim etilgan hujjatlar ko‘rib chiqilib, tayyorlangan qaror loyihasi (regulation.gov.uz) portaliga joylashtirilib, jamoatchilik muhokamasi muddati 2025-yil 24 dekabrda yakunlandi.

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaning 2025-yil 4-dekabrdagi

yig‘ilish bayoni va xulosasi, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Avtomobil yo‘llarida harakatni tashkil etish, boshqarish va xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hududiy maxsus komissiya kotibi- Viloyat IIBB “Yo‘l harakati xavfsizligi” boshqarmasi boshlig‘i A.Sadirovning “Viloyat hududlarida 2025-yilning 12 oyi davomida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari to‘g‘risida”gi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 98-sonli farmoniga asosan viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hududiy maxsus komissiya”sining D 012 “Byektemir sh. - CHirchiq sh. - G‘azalkent sh. - Chorbog‘ qo‘rg‘oni” avtomobil yo‘lining 6 ta aholi yashash joyidan tashqari qismida harakat tezligini kamaytirish bo‘yicha taklifi **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

3. Toshkent viloyati Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi boshlig‘i J.Bekmurzayev:

o‘n kun muddatda ilovada ko‘rsatilgan hududlarda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida harakat tezligini cheklash uchun 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” (80 km/soat) yo‘l belgilari o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Toshkent viloyati hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (G‘.Sheraliyev), viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi axborot xizmati (B.To‘laganov) viloyatning ayrim xududlarida xarakat yo‘l transport xodisalarini oldini olish maqsadida xarakat tezligi kamaytirilganligini ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi R.Sheraliyev, viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov hamda viloyati hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha guruhi rahbari F.Mirzayev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **FAYZIYEVA SAYYORA MAVLYANOVNA**

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2026-yil 2-fevraldagi
VII-27-14-10-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

D 012 “Byektemir sh. - Chirchiq sh. - G‘azalkent sh. - Chorbog‘ qo‘rg‘oni” avtomobil yo‘lining 6 ta aholi yashash joyidan tashqari qismida harakat tezligini kamaytirish bo‘yicha
TAKLIFI

T/r	Manzili	Lokatsiyasi	Tuman yoki shahar	Avtomobil yo‘li bo‘yicha manzili	Mavjud holat	Taklif etilayotgan tezlik
1	Toshkent viloyati	41.348023, 69.505748	Yuqori Chirchiq tumani	4R-12-“Byektemir sh.-Chirchiq sh.-G‘azalkent sh.-Chorbog‘ qurg‘oni” a/y (aholi punkitidan tashqarida) 19-20 km oralig‘i	100	80
2	Toshkent viloyati	41.520561, 69.671829	Bo‘stonliq tumani	4R-12-“Byektemir sh.-Chirchiq sh.-G‘azalkent sh.-Chorbog‘ qo‘rg‘oni” a/y (A.P.T) 44-45 km oralig‘i	100	80
3	Toshkent viloyati	41.551968, 69.717048	Bo‘stonliq tumani	4R-12-“Byektemir sh.-Chirchiq sh.-G‘azalkent sh.-Chorbog‘ qo‘rg‘oni” a/y (A.P.T) 49-50 km oralig‘i	100	80
4	Toshkent viloyati	41.574453, 69.824548	Bo‘stonliq tumani	4R-12-“Byektemir sh.-Chirchiq sh.-G‘azalkent sh.-Chorbog‘ qo‘rg‘oni” a/y (A.P.T) 61-62 km oralig‘i	100	80
5	Toshkent viloyati	41.591195, 69.857572	Bo‘stonliq tumani	4R-12-“Byektemir sh.-Chirchiq sh.-G‘azalkent sh.-Chorbog‘ qo‘rg‘oni” a/y (A.P.T) 64-65 km oralig‘i	100	80
6	Toshkent	41.623650,	Bo‘stonliq	4R-12-“Byektemir sh.-Chirchiq sh.-G‘azalkent sh.-	100	80

	viloyati	69.932761	tumani	Chorbog‘ qo‘rg‘oni” a/y (A.P.T) 71-74 km oralig‘i		